

LISONIY MEROS VA TILSHUNOSLIK TARAQQIYOTI

ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ И РАЗВИТИЕ ЯЗЫКОЗНАНИЯ

LINGUISTIC HERITAGE AND DEVELOPMENT OF LINGUISTICS



XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA

Andijon

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

“LISONIY MEROS VA TILSHUNOSLIK TARAQQIYOTI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2023-yil, 15-may

Andijon

MUNDARIJA

TIL TADQIQIDA ZAMONAVIY YO‘NALISHLAR: KOGNITIV TILSHUNOSLIK, PRAGMALINGVISTIKA, LINGVOKULTUROLOGIYA, SOTSIOLINGVISTIKA, LINGVOPOETIKA, PSIXOLINGVISTIKA

САЙФУЛЛАЕВА Раъно Рауфовна

Замонавий ўзбек тилшунослигининг янги талаблари 3

LUTFULLAYEVA Durdona, NARXODJAYEVA Xurshida

Rasmiy akt turlari va ularning qo‘llanish o‘rinlari 7

ҲАКИМОВ Муҳаммадхон

Тилшуносликнинг қиёсий-тариҳий, систем-структур ва антропоцентрик илмий парадигмалари 12

ISKANDAROVA Sharifa, MIRZATILLAYEVA Sayyora

Fitrat asarlarida qo‘llanilgan arabcha o‘zlashmalar semantikasiga doir 15

BOBOKALONOVA Ramazon Rajabovich

Neyropsixolingvistika: shaxsiyatning rangin jilosi 19

САБИРОВА Мухлиса

Газета матнларида субъектив баҳонинг ифодаланиши 26

RAHIMOV Usmonjon Ergashevich

Presuppozitsiya va aktual bo‘linish 33

САГИДОЛДА Гульгайша, ЗҰЛПЫХАР Ақнұр

Ясауи «Хикметтерінің» тілі және лингворухани код мәселесі 42

НОСИРОВ Шерзодбек Исматуллаевич

Особенности медийных текстов и их разнообразие 50

SHIRINOVA Yekaterina Turakulovna

Axborot almashinuvining psixolingvistik jihatlari 55

SHODIYA Ganiyeva Azizovna

Frazeologik birliklar transformatsiyasi haqida 58

KOMILOVA Gulmira Temirovna

Mubolag‘aning poetik nutqda qo‘llanishi va uning o‘zbek tilshunosligida tadqiqi 60

MURATOVA Nafisa Baxtiyarovna

Diskurs jarayonida adresant va adresatning nolisoniy(paralingvistik) vositalardan foydalanishi 63

G‘ANIYEVA Dilafruz Xasanboy qizi

“Ta’lim” mikromaydonida “Baholash” semasini ifodalovchi lisoniy vositalar. 67

| | |
|---|-----|
| <i>O'NG'AROVA Komila Murot qizi, MUXTAROVA Shaxnoza</i> | |
| Ta'lim sifatini oshirishda videodarslarning ahamiyati..... | 341 |
| <i>AXADOVA Sevara Toxir qizi, MUXTAROVA Shaxnoza</i> | |
| Ot va sifat so'z turkumlarini o'qitish metodikasi..... | 344 |
| <i>TURG'UNPO LATOV Diyorbek, MUXTAROVA Shaxnoza</i> | |
| Ta'lim jarayonini zamonaviy yondoshuv asosida tashkil etish..... | 347 |
| <i>AIMBETOVA Muqaddas Alisher qizi</i> | |
| Til o'rgatishda aborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashning psixolingvistik jihatlari..... | 350 |
| <i>JALOLIDDINOVA Mushtariybonu Jamoliddin qizi</i> | |
| O'zbek tilida eponimizatsiyaga oid mulohazalar..... | 353 |
| <i>RAVSHANJONOVA Sitora Jahongir qizi</i> | |
| Ona tili darslarida pisa testlaridan foydalanish..... | 357 |

TATBIQIY TILSHUNOSLIK MASALALARI VA KOMPYUTER LINGVISTIKASI

| | |
|--|-----|
| <i>MЎЙДИНОВ Қодиржон</i> | |
| Суд нотиқлиги ҳақида..... | 360 |
| <i>ИСМОИЛОВ Хурматилло Тўлқинжон ўғли</i> | |
| Суд мажлисида раислик қилувчи нутқининг расмий нутқ услуби доирасида чегараланиши..... | 362 |
| <i>ЭРГАШЕВ А.</i> | |
| Неотопонимлар хусусидаги мулоҳазали муаммолар..... | 365 |
| <i>ТЎРАХЎЖАЕВА Адибахон, Абдусатторова Фарангиз</i> | |
| Ўзбек орфографиясининг шаклланиш жараёнлари..... | 370 |
| <i>NO'MONOVA Yulduz Umarjon qizi</i> | |
| Davriy nashrlar tili xususida mulohazalar..... | 373 |
| <i>HASANOVA Sanobar Farxod qizi, MUXTAROVA Shaxnoza</i> | |
| Paronimlarning nutqda uslubiy vosita sifatida qo'llanishi..... | 377 |
| <i>AXMEDOVA Aynurra Quanishbay qizi</i> | |
| Zamonaviy internet terminlari..... | 380 |
| <i>OZODOVA Barchinoy Jamol qizi, MURATOVA Nafisa</i> | |
| "Shajarayi turk" asarida etnik nomlarning qo'llanilishi..... | 383 |
| <i>ODAMBAYEVA Umida Baxtiyor qizi, MURATOVA Nafisa</i> | |
| Til tarixida gumon olmoshining qo'llanilishi va taraqqiyoti..... | 385 |

QIYOSIY VA TARIXIY TILSHUNOSLIK

ECKEEVA Magruna Kайнарбаевна

Паремиологические параллели в казахском и узбекском языках..... 388

HAMIDOVA Kamola Mamirovna

Andijon polisonimi va uning variantlari xususida..... 395

ШУКУРОВА Зилола, Азизулло Орол

Ўрта осиёда баёз тузиш анъанасининг пайдо бўлиши..... 398

KABULJONOVA G.

O‘zbek va qirg‘iz tillarida qo‘llanuvchi mushtarak iboralar xususida..... 401

AXMADJONOVA Dilbaroy Alisher qizi

“Qutadg‘u bilig” asarida qo‘llanga ayrim arxaik leksemalarning leksik-
semantik xususiyatlari..... 404

KARIMOVA Charosxon Ibroximjon qizi

Munisning “Kerakmasmu sanga?” radifli g‘azalida qo‘llangan o‘zlashma
so‘zlar..... 406

MURODOVA Firuza Jalolovna

Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy vatanparvarlik nutqi..... 409

MADRAHIMOVA Zumrad Baxtiyor qizi, MURATOVA Nafisa

Alisher Navoiyning turkiy til taraqqiyotidagi hissasi..... 411

ORTIQBOYEVA Shahrizoda Mamadiyor qizi, MURATOVA Nafisa

XIX-XX asrlar adabiy til xususiyatlari..... 414

RAJABBOYEVA Go ‘zal Arabboyevna, MURATOVA Nafisa

Abdurauf Fitratning tilshunoslikka oid qarashlari..... 416

SA ’DULLAYEVA Aziza Qadamboy qizi, MURATOVA Nafisa

Alisher Navoiy asarlarida sinonimlarning qo‘llanilishi..... 419

ALTIBOYEV Yuldashev Ergash o ‘g ‘li

Mahmud Koshg‘ariy - turkiy til tadqiqotchisi va uning asari haqida..... 421

BAXRAMOVA Nodira Amandilloyevna

Vertikal harakat fe’llarining ma’no tuzilishi..... 425

SHEVASHUNOSLIK VA AREAL LINGVISTIKA

СОБИРОВ Абдулҳай Шукирович

Ўзбек халқ лаҗжалари ва шеваларини ўрганиш янги босқичда..... 428

DARVISHOV Ibrohim

Sheva, etnos va til munosabatlari..... 433

ЧИНИҚУЛОВ Н.

- 7.Rahmonov V. She'riy san'atlar. – Toshkent, 1962.
- 8.Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati, – Toshkent, 1979.
- 9.Rustamov A. Qofiya nima? – Toshkent, 1976.
- 10.Turg'unpo'latov D. O'zbek bolalar adabiyoti va Turg'unboy G'oyipov. – Toshkent, 2021.
- 11.Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. – Toshkent: Fan, 1990. B. 56.

DISKURS JARAYONIDA ADRESANT VA ADRESATNING NOLISONIY (PARALINGVISTIK) VOSITALARDAN FOYDALANISHI

Muratova Nafisa Baxtiyarovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotation: Nutq sharoiti tinglovchi va so‘zlovchi saviyasi, nutq jarayonida ularning xatti-harakatlari, qolaversa, nutq maqsadi – bularning barchasi ekstralinguistik lisoniy birliklardan tashqari vositalardir. Nutqda o‘zaro muloqot jarayonida lisoniy birliklarga hamroh bo‘ladigan paralingvistik vositalar alohida o‘rin egallaydi. Diskurs jarayonida adresant va adresatning nolisoniy vositalaridan foydalanishning quyidagi ko‘rinishlari kuzatiladi.

Kalit so‘zlar: paralingvistik vositalar, ekstralinguistik vositalar, adresant, adresat, nolisoniy vositalar, verbal, noverbal vositalar, nutqiy muloqot shakllari, nutq turlari, axborot almashinuvi.

Muloqot – murakkab ko‘rinishdagi lisoniy tafakkur faoliyatidir. Bu faoliyat natijasida nutqiy tuzilmalar hosil bo‘ladi va ushbu tuzilmalar strukturasida lisoniy tafakkur faoliyatining “iz”lari saqlanadi. Ammo ushbu “iz”larni topish va ularni qismlarga ajratish oson emas, zero muloqot borligi matnning tarkib topishida biz fikrimizning barcha elementlari inson ongida tug‘iladigan nutqiy qolipni voqelantiruvchi vositalarga aylanadilar. Bundan tashqari, muloqot matnining shakllantirilishida lisoniy birliklarning ham ishtirok etishini unutmaslik kerak.¹ XXI asrning boshlariga kelib mamlakatlararo va millatlararo munosabatlarning kuchayishi natijasida insonlararo aloqa axborot almashinuvi tobora avj olmoqda. Axborot almashinuvida, ya’ni muloqot jarayonida so‘zlovchi va tinglovchining ishtiroki shart. Bir ishtirokchining muloqot harakati albatta ma’lum munosabatni ifodalaydi, tinglovchi o‘z munosabatini bildiradi. -Yolg‘on so‘z bul! Yolg‘on!– Mansur mesh go‘dakning boshiday yum-yumaloq, yumshoq mushti bilan xontaxtani gurs etib urdi. -Dir-dir titragan qo’llarini dasturxonadagi gul dor ro‘molchaga cho‘zganicha -buning hammasi uyushtirilg‘on, tashkil qiling‘on! Esa... Shu savxozga o‘ttiz yil boshliq bo‘lib kimga yomonlik qildi kamina? (Odil Yoqubov – adolat manzili. Toshkent, “Sharq”, 2005. 38-bet) Nutq sharoiti

¹ Сафаров Ш. Паралингвистика. Тошкент: ЎзМЭ, 2008. 210- б.

tinglovchi va so‘zlovchi saviyasi, nutq jarayonida ularning xatti-harakatlari, qolaversa, nutq maqsadi–bularning barchasi ekstralivingistik lisoniy birliklardan tashqari vositalardir. Nutqda o‘zaro muloqot jarayonida lisoniy birliklarga hamroh bo‘ladigan paralingvistik vositalar alohida o‘rin egallaydi. -Ho, ho! –Sharanovskiy keng mehmonxonada u yoqdan – bu yoqqa yugurib, havoda charxpalak qilgan qog‘oz pullarni chapdastlik qilib tutar ekan, o‘ta mammun ravishda xitob qildi. – Mana poraga kelgan pullar! Mana boylik!... Mana boylik deb xitob qilardi. Hatto poygakdag'i kursida o‘tirgan Mansur mesh ham, joyida besunaqay talpinib-talpinib, bir nechta o‘n so‘mliklarni tutib oldi. (O.Yoqubov. 50) Muloqot jarayonida so‘zlovchi o‘z fikrini bayon qilishda uning oldida ma’lum maqsad turadi. Bu maqsad so‘zlovchining tinglovchini tushunishi, anglashidan iboratdir. So‘zlovchi va tinglovchining bir-birini tushunishi va anglashi faqat ular uchun umumiylasos mavjud bo‘lgandagina amalga oshishi mumkin. Shuning uchun lison qanchalik ijtimoiy, so‘zlovchi va tinglovchi uchun umumiylasoburiy bo‘lsa, nutq ham ular uchun shunday umumiylasoburiy va ijtimoiydir. Lisoniy tizimda ayni bir xil mazmun va munosabatni ifodalashning yuzlab omillari mavjud. So‘zlovchi esa mana shu imkoniyatlar xazinasidan birini tanlash va qo‘llash erkinligiga ega.¹ Muloqot jarayonida paralingvistik vositalar kommunikatsiyada ishtirok etuvchi qo‘shimcha vositalar sanaladi va ular aloqa aralashuvda ma’lum axborotni uzatish, mazmunan to‘ldirish, aniqlik kiritish kabi vazifalarni bajaradi. Kishi jonli so‘zlashuv nutqida fikrning emotzionalligini hamda ta’sirchanligini oshirishda muhit va sharoitdan kelib chiqib tilga yondosh bo‘lgan noverbal vositalardan foydalanadi. Ma’lum axborotni tinglovchiga yetkazish jarayonida qo‘l, bosh, yelka, gavda, yuz harakatlari, ovozning baland-past, cho‘ziq, to‘xtalib talaffuz qilinishi orqali ham ma’lum ma’no ifoda etiladi. Masalan, Bibisora momo qizaloqni bag‘riga bosib, tebranib o‘tirar, u allanimalarni aytib, go‘yo o‘lgan odamni yo‘qlagandek yo‘qlab yig‘lar, uning gaplariga tushunib bo‘lmas, biroq ovozining o‘ziyoq yurakni zir titratardi. Veteran uning yoniga o‘tirib tasalli berishga chog‘langan edi, momo yoshiga mos tushmaydigan bir chaqqonlik bilan qizaloqni bag‘ridan qo‘yib yubordi-yu, ko‘zları sovuq chaqnab: -Bor! Bor! Jo‘na! –dedi sensirab. –Etagimga yopishavermay bor anov kiyovimdi qamag‘anlarga! Sovet o‘kimatining ustuni bo‘lg‘anman, bosmachilar bilan olishib, shu o‘kimatning xizmatini qilg‘onman deb maqtanuvchi eding. Beteransan! Nedan qo‘rqasan, Beteran! -Shoshma, momo, boraman. Hamma idoralarga kiraman xudo xohlasa Momo choliga yalt etib qaradi:- Ha, xudo bor! -Bor!-dedi u... Yo‘q, -dedi u ulkan oppoq boshini chayqab. -Sen bilan biz ishlagan vaqtimizda pora nimaligini bilmas edik, og‘ayni. (O.Yoqubov. 69-70) betlar. Yuqoridagi matn parchasidan ko‘rinib turibdiki, fikr ifodalashda

¹ Sh. Safarov, G. Toirova “Nutqning etnosotsiopragmatik tahlili asoslari”. Samarqand, 2007. 13-bet .

paralingvistik vositalar inobatga olinmay muloqot tadqiq etiladigan bo‘lsa, lisoniy tahlil to‘laqonli bo‘lmaydi. Turli yuz ifodasi, boshni qimirlatish, gavda harakatlari, makon yaqinligi, ovoz tabiati, kiyimlar, so‘zlovchi va tinglovchining ijtimoiy yoki boshqa maqomi kabi xilma-xil omillar kommunikatsiya jarayonida alohida qimmatga ega. Uzatilmochi bo‘lgan axborotning mazmuni, maqsadi va faoliyatiga uyg‘un tarzda kommunikatsiya kanali tanlanadi. - *Hozir biz bu kishini emas, - Sharanovskiy Mansur meshga imo qildi, sizni tergov qilyapmiz. O‘zingdan gapir, Suvonqulov! Xo‘s, chiqarasanimi yashirgan pullaringni yo ... Suyun burgut qaysargina bosh chayqadi: - Yashirgan bir tiyinim ham yo‘q! Borligini bilsangiz ... so‘rab nima qilasiz? Topib olavering tintib!* (Adolat manzili 51 bet). Aksariyat hollarda noverbal vositalarsiz fikr yalang‘och, mantiqiy jihatdan ham, psixologik jihatdan ham qo‘yilgan talabga javob bermaydi. -Tuya ko‘rdingizmi, yo‘q! Biya ko‘rdingizmi-yo‘q! Ammo ... meni avf etasiz oqsoqol! Sizday yoshi ulug‘ odam emas, yosh bolaning gapi-ku bu! Vijdonli odamning so‘zi emas-ku bu, oqsoqol! - Nima, nima deding?- Veteran yoshiga mos bo‘limgan bir chaqqonlik bilan sapchib turdi. -Men vijdonsiz?...Men... bizlar... Xalq uchun kurashganda ... sen ... sen mishiqi hali onangning qursog‘ida ham yo‘q eding! Sharanovskiy Veteranga qarab bir qadam tashladi-yu, oyoqlarini kerib to‘xtadi. Uning yupqa qonsiz lablari pirpirab ucha boshladi. -Siz! O‘z vazifamni o‘tayotgan bir vaziyatda haqorat qilyapsiz meni buning uchun javob berasiz! –deb dag‘dag‘a qila boshladi. (O‘sha asar, 112-bet) Fonatsion paralingivistik vositalarda so‘zlovchining o‘z fikriga yoki suhbatdoshiga ijobiy, salbiy munosabatda ekanligi fikr ifodalashda so‘zlarni qanday talaffuz etishidan, ovozning ohangidan ma’lum bo‘ladi. Ovozning pasayishi yoki kuchayishi, pauza bilan yoki surunkali yo‘g‘on, ingichka ovozda gapirish so‘zlash jarayonidagi ohang hususiyatlari aloqa aralashuvda qo‘srimcha omillar sanaladi. - Qonundi ayt, qonundi! Qonun biz puqaroga tuzilib, ukumatga tuzilmag‘anma, qonun? Umurzoqov qo‘lini ko‘tarib, g‘ala-g‘ovurni arang bosdi: -O‘rtoqlar. Gapimga quloq solinglar, o‘rtoqlar! -Tish-sh -Jim! Jim deyapman! -Eshitaylik, birodarlar!... O‘rtoqlar! Yuqoridagi “Qonundi ayt, qonundi!...” gapida norozilik, baland ovozda gapirish oddiy axborotdan butunlay farq qiladi. “... g‘ala-g‘ovurni” bosish maqsadida “O‘rtoqlar” deb murojaat qilinib, barchaga tinglash imkoniyatini vujudga keltirish maqsadida “Tish-sh”, deb qo‘lini labiga tegizib ishora qilgani kuzatiladi. Yuqorida ta’kidlanganidek so‘zlovchi ham, tinglovchi ham o‘z nutqini va tinglash jarayonini paralingvistik vositalar-turli hil harakatlar, imo-ishoralar bilan birga olib boradi. Hatto kitob o‘qiyotganda, televizor ko‘rayotganda yoki sport musobaqalarini kuzatayotganda odamlar qoshlarini chimiradi, goh jilmayib qo‘yadi, gohida yuzida ajablanganlik belgilari sezilib turadi, gohida yig‘laydi, o‘zları bilmagan holda turlicha harakatlar qiladi. Bularning barchasi paralingvistik vositalardir. Tabiiyki, har bir millat kommunikantlari uchun o‘ziga xos

paralingvistik vositalar mavjuddir. Chunonchi, musulmonlar, shu jumladan o‘zbeklar uchun salomlashish jarayonida odob nuqtayi nazaridan qo‘lni ko‘krakka qo‘yib, boshni xiyol darajada egib, ta’zimga yaqin harakat qilib salom berish o‘zbekona urf-odatdir. Mana shu salom berish jarayonida “assalomu alaykum” uning o‘ziga xos talaffuz ohangi lisoniy, lingvistik vositadir. Mana shu ibora ham, belgi –harakatlar, gavda harakatlari paralingvistik vositalardir. Muloqot dinamikasi uning muhiti ishtirokchilari tarkibi, shakl va mazmun o‘zgarishlarida namoyon bo‘ladi. Hayot taraqqiyoti muloqot doirasining kengayishi, uning yangi turlari hosil bo‘lishini taqozo qiladi. Muloqot ijtimoiy harakterda bo‘lib, avloddan-avlodga o‘tib, mazmunan boyib ma’lum “qolip”larda o‘zlashtirilib boriladi. Muloqot shakli–madaniy hodisa va shu sababli turli madaniy guruhlarda (xalq, etnos, qabila va kichik ijtimoiy guruhlarda) turlicha udumlar, an’anaviy ritual qoidalari mavjud. Guruhlarda qo‘llanishda bo‘lgan muloqot shakli ularning ishtirokchilari yagona jamoa sifatida birikishini ta’minalash natijasida, guruhlarni o‘zaro farqlash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Yana shuni qayd qilish lozimki, muloqot shakllarining sifat va son farqari turli madaniyat va sotsiumlar o‘rtasida paydo bo‘ladigan muloqot ehtiyojini ta’minalashni qiyinlashtiradi. Bunday ehtiyojni qondirish uchun odatda, tarjimonlar ko‘magiga murojaat qilish, umumiy ramziy belgilar sun’iy kod kabi vositalarga murojat qilish kerak bo‘ladi.¹ Xulosa qilib aytganda, jamiyatdan tashqari til va til siz jamiyat bo‘lamanidek, tilning ijtimoiy mohiyati va muloqotning eng asosiy vositasi doimo insoniyatning diqqat markazida bo‘lishi tabiiydir. Zero, jahonda hukm surayotgan bozor iqtisodiyotida muloqotning o‘rni bundan buyon ham ortib borishini davrning o‘zi taqozo etmoqda. Yuqorida qayd etilganidek, muloqot jarayonida axloq-odob, so‘zlashish, turli rasm-rusumlar, urf-odatlar, nutqning muayyan ehtiyojlari, so‘zlovchi va tinglovchining yoshi, saviyasi, kasbi, madaniylik darajasi, millati va hokazo hammasi nutq ta’sirchanligi uchun ahamiyatlidir. Umuman, ijtimoiy muhit nutqda, murojaat shakllarida o‘zining aniq ta’sirini namoyon etadi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

- 1.Safarov. Sh Paralingvistika, Toshkent: O‘ZME. 2008, 210-b
- 2.Safarov.Sh, Toirova.G. “Nutqning etnosatsiopragmatikli tahlili asoslari”. Samarqand, 2007. 18-b
- 3.Odil Yoqubov. “Osiy banda”. Jalon adabiyoti.2008, 9-son.
- 4.Aliqulov Z., Boymirzayeva S. “Sotsiolinvistikha”- Samarqand, 2010 yil
- 5.Odil Yoqubov – adolat manzili. Toshkent, “Sharq”, 2005. 38-bet

¹ L. Ravshanova. Muloqot tizimining tarkibi va umumiy belgilari. Muloqot shakllari va xorijiy tillarga o‘rgatish. Samarqand, 2002, 81-82.